

## ILMIY PARADIGMADA “BAXT” KONSEPTI

**Valieva Noiba Abbasxonovna**

Toshkent davlat sharqshunoslik  
universiteti o‘qituvchisi,

[naying1564@mail.ru](mailto:naying1564@mail.ru)

<https://orcid.org/0009-0003-0666-5353>

**Аннотация.** Baxt bilan bog‘liq savollar insoniyatni azaldan qiziqtirib kelgan. Qadimgi yunon mutafakkirlari baxt nima ekanligini, uni qanday his qilish mumkin, qanday insonlar baxtli insonlar kabi savollarga javob izlashgan. “Baxt” konseptining semantik chegaralari juda keng bo‘lib, bir qator falsafiy, diniy, axloqiy, psixologik, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa jihatlarni tizimli ko‘rib chiqishni o‘z ichiga oladi. Shu sababli ham ushbu konseptni ko‘rib chiqish qaysi yo‘nalishda bo‘lishiga qarab, uning semantik tarkibi sezilarli darajada o‘zgarishi mumkin. Maqolada mazkur yo‘nalishlar tahlil qilingan.

**Калит so‘zlar.** Baxt, felisitologiya, subyektiv va obyektiv baxt, evdemonizm, metafizik konsept, mikrokosmos va makrokosmos

**Аннотация.** Связанные с счастьем вопросы давно интересуют человечество. Древнегреческие философы искали ответы на вопросы, что такое счастье, как его можно почувствовать, какие люди считаются счастливыми и так далее. Концепция «счастья» имеет очень широкие семантические рамки и включает в себя системный анализ ряда философских, религиозных, моральных, психологических, социально-экономических и других аспектов. Поэтому, в зависимости от направления исследования, семантический состав этого концепта может значительно изменяться. В статье рассматриваются данные направления.

**Ключевые слова.** Счастье, фелицитология, субъективное и объективное счастье, эвдемонизм, метафизическая концепция, микрокосмос и макрокосмос.

**Annotation.** The questions related to happiness have long intrigued humanity. Ancient Greek philosophers sought answers to questions such as what happiness is, how it can be experienced, and what kind of people are considered happy, among others. The concept of "happiness" has very broad semantic boundaries and involves a systematic analysis of a number of philosophical, religious, moral, psychological, socio-economic, and other aspects. Therefore, depending on the direction of the study, the semantic composition of this concept can vary significantly. This article examines these directions.

**Keywords.** Happiness, felicitology, subjective and objective happiness, eudaimonism, metaphysical concept, microcosm and macrocosm.

### KIRISH.

Aynan “baxt” qadim zamonlardan beri deyarli barcha faylasuf olimlarni qiziqitirib kelayotgan tushuncha, ruhiy holatdir. U haqida qadim zamonlardan beri Epikur, Aristotel, Seneka, Konfutsiy yozib o‘tishgan bo‘lsa, keyingi davrlarda Avgustin Blajenniy, Foma Akvinskiy, Gelvetsiy, I.Kant, L.Feyerbax, J.Bentam, J.S.Mill va b. qiziqqan. Biroq, uni chuqurroq va keng qamrovda o‘rganish, felisitologiyani paydo bo‘lishi o‘tgan asrdan boshlangan.

Baxt metafizik tushuncha bo‘lib, falsafa bilan bog‘liq. Shu sabab “Etika lug‘ati”da berilgan ta‘rifga nazar solamiz: “Baxt axloqiy ong tushunchasi sifatida insonning shunday holatini anglatadiki, u o‘z sharoitlaridan kelib chiqib insoniy maqsadlarni amalga oshirish, hayotning to‘liqligi va mazmunlilikidan eng katta ichki qoniqishga ega bo‘lish.<sup>1</sup>”. Bugungi iqtisodiy globallashuvga madaniy globallashuv hamrohlik qilmoqda, bu esa turli mamlakatlar madaniyatining bir-biriga kirib kelishining muqarrar tendentsiyasini yaratadi. 1998 yilda YuNESKOning “Jahon madaniyati to‘g‘risida”gi 1998-yildagi hisoboti shuni ko‘rsatdiki, iqtisodiy globallashuv madaniyat rivojiga ulkan va keng ko‘lamli ta‘sir ko‘rsatdi, har xil millatlar madaniyatini o‘rganish yetakchi sohaga aylanmoqda. Baxt haqidagi tadqiqotlar 60-yillardan boshlab AQShda keng tus oldi. Amerika va Yevropadagi jamoatchilik fikrini o‘rganuvchi tashkilotlari odamlarning baxtiyorligi va qoniqishlari bo‘yicha so‘rovlar o‘tkazdilar, ularning natijalari M.Argyle, X. Cantril, N. Bredbern, A. Kempbell, P. Convers, V. Rogers va boshqalarning “Social

<sup>1</sup> Словарь по этике./ Под ред. Гусейнова А.А. и Кона И.С. – М., Издательство политической литературы, 1989, 343с.



Indicators Research” (Ijtimoiy ko‘rsatkichlar tadqiqoti), “Personality and Individual Differences” (Shaxs va individual farqlar) va “The Journal of Personality and Social Psychology” (Baxtning psixologik va ijtimoiy psixologik) jurnallarida “baxt”ni o‘rganishga bag‘ishlangan maqolalar muntazam chop etiladi<sup>2</sup>.

Hozirgi kunda hech kimga sir emaski, butun dunyo bo‘ylab Xitoy tili, madaniyati, urf-odati va xatto oshxonasini o‘rganish ham urfga kirgan. Turli madaniy elementlar ko‘p jihatdan Xitoy madaniyatining xilma-xilligini ko‘rsatadi. Qadimdan Xitoy o‘ziga ohangraboddek sayyohlarni jalb qilgan, tili, yozuvi, urf-odatlar va madaniyatini qiziqish uyg‘otgan. Aynan tili va iyerogliflari o‘zgacha bo‘lgani sabab, hozirgi davrda ham xitoyliklar, ham chet ellik tilshunoslar tomonida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xitoyda “baxt” (五福) tadqiqotining rivojlanishi 1980 -yillarda boshlangan bo‘lib, chet elda 20 yildan ko‘proq vaqtdan so‘ng tadqiq etilgan va tez rivojlanib, ko‘plab natijalarga erishilgan. Dastlabki, “baxt” so‘zi bilan statistikaga ko‘ra, shu paytgacha (幸福 haqida) 11900 ta ilmiy maqola borligi aniqlangan<sup>3</sup>.

**ASOSIY QISM.** Baxt hodisasini o‘rganishda katta hissa qo‘shgan va bir necha monografik tadqiqotlar muallifi V. V. Tatarkevich ta’kidlaganidek, “ikki ming yil ichida baxt haqida yaratilgan ishlar ko‘p, shunga qaramay, dunyoda baxtni o‘rganish muammosini to‘liq qamrab oladigan kitob hali yaratilmagan. Uning barcha tomonlarini jamlab, yechimi keltirilgan, keng qamrovli ishni uchratmadim. Odamlar uchun unchalik muhim bo‘lmagan masalalar bo‘yicha juda ko‘p kitoblar mavjudligini hisobga olsak, bu deyarli aql bovar qilmaydigan hodisa<sup>4</sup>”. Mazkur ta’rif baxt konsepti haqidagi izlanishlar hali ham davom etayotgani va yagona bir fikrga kelmaganini ko‘rsatadi. Baxtni tadqiq qilishning qiyinligi shundaki, mavzuning o‘ziga xosligini aniqlash juda qiyin, sababi “baxt” so‘zi turli ma’nolarda qo‘llaniladi. V.Tatarkevichning ta’kidlashicha, so‘zlashuv nutqida “baxt” so‘zining ikkita asosiy ma’nosini ajratib ko‘rsatish mumkin: 1) obyektiv, 2) subyektivdir. Birinchi ma’noda “baxt” ma’lum bir inson bilan sodir bo‘lgan quvonchli voqealarni ifodalasa, ikkinchi ma’noda sub’yektiv ya’ni har bir inson o‘zi his qilgan kuchli quvonch, baxt yoki zavqlanish holatini anglatadi. Birinchi holatdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri inson atrofdagilarni his-tuyg‘usi haqida gapirsa, ikkinchi holatda inson

<sup>2</sup> <http://www.dslib.net/soc-filosofia/socialno-filosofskij-analiz-fenomena-schastja.html>

<sup>3</sup> 近年来关于幸福研究的文献综述 李立 中南民族大学 民族学与社会学学院 武汉-2013.

<sup>4</sup> Татаркевич В. О счастье и совершенстве человека. М., 1981, с-53.

shaxsan o‘zi nimani boshdan kechirganligi haqida gapiradi, ko‘pchilik subyektiv baxtni obyektiv bilan bog‘laydi. Natijada, barchada yadrosi bitta, biroq komponentlar turlicha baxt haqidagi tushuncha yuzaga keladi.

“Baxt” konseptini o‘rganish bugunga qadar ko‘plab olimlar tomonidan qiziqish uyg‘atgan bo‘lib, lingvokognitiv va lingvomadaniy yondashuvdagi ishlarni ko‘rib chiqsak, jumladan, S.G.Vorkachyov “Концепт счастья в русском языковом сознании: опыт лингвокультурологического анализа” nomli monografiyasida<sup>5</sup> tadqiqotning o‘ziga xos vazifalari ya‘ni rus ilmiy va lingvistik ongida inson o‘z hayotining muvaffaqiyati va mazmuniga munosabatini tartibga soluvchi ma‘naviy mohiyat sifatida baxt tushunchasining lingvomadaniy xususiyatlari va semantik tuzilishini tahlil qilib o‘tgan. M.V.Klarin “На путях познания счастья” kabi maqola ishlarda<sup>6</sup>, Yu.S.Stepanov “Константы: Словарь русской культуры” nomli kitobda<sup>7</sup> muallif asosan “quvonch” konseptiga to‘xtalib, uni etimologik tahlil qilgan.

Muvaffaqiyatli hayot yo‘li sifatida “baxt” konsepti qadim zamonlardan buyon jamoatchilik ongida mavjud bo‘lib, deyarli ko‘pgina konseptlarning ham tor ma‘noda, ham keng ma‘noda komponentlariga “mos”dir<sup>8</sup> biroq, aynan “baxt” konsepti aniq ichki shaklga ega, baxt haqidagi qarashlar etnomadaniy tarzda belgilanadi va birinchi taxminda bir tsivilizatsiyadan boshqasiga farq qiladi<sup>9</sup>. Demak, “baxt” konsepti madaniyatning konstanti desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Insoniyat yaralibdiki, baxt nima va unga qanday erishish mumkinligi haqida aniq javob bermagan. Bu ko‘p jihatdan insoniyat ushbu murakkab va fanlararo savolga har tomonlama javob berish uchun yetarli ilmiy fundamental ma‘lumotlarga ega emasligi bilan bog‘liq. XXI asrga kelib, insoniyat ilmiy bilimlarning ulkan to‘plami yig‘ildi, bu esa inqilobiy kashfiyotlarni amalga oshirishga imkon beradi va ilgari erishib bo‘lmaydigan bo‘lib tuyulgan narsalar endi haqiqatga aylandi. Shu tariqa, hozirda insoniyatga baxt nima va unga qanday erishish mumkinligi haqidagi savolini yechimiga har qachongidan ham yaqinlashishiga imkon beradi.

<sup>5</sup> Воркачев С.Г. Концепт счастья в русском языковом сознании: опыт лингвокультурологического анализа- Краснодар КТУ, 2002.-142 с.

<sup>6</sup> Кларин М.В. На путях познания счастья (вступительная статья) // Аргайл М. Психология счастья. М., 1990. С.5-26.

<sup>7</sup> Степанов, Ю. С. Константы: Словарь русской культуры – М. : Академиче-ский проект, 2004. 992с

<sup>8</sup> Воркачев С.Г. Концепт счастья в русском языковом сознании: опыт лингвокультурологического анализа- Краснодар КТУ, 2002.-142 с.

<sup>9</sup> Кларин М.В. На путях познания счастья (вступительная статья) // Аргайл М. Психология счастья. М., 1990. С.5-26.

Insonning baxt haqidagi qarashlari orqali uning ruhiy holati haqida ham ma'lumot olish mumkin, “Sen baxt deganda nimani tushunishingni ayt, men senga kimligingni aytaman” (Yu.S.Stepanov) degan naql ham bekorga emas. “Baxt - bu biz qila oladigan eng yuqori zavq” deydi ingliz pedagogi va faylasufi Jon Lokk. Falsafa va psixologiya rivojlanish tarixida “baxt”ni tushunishga bo‘lgan harakatlar hozirgi kundagi felisitologiya yo‘nalishini (baxtning nazariy va amaliy muammolari o‘rganuvchi yo‘nalish) paydo bo‘lishiga olib keldi. Biroq, “madaniy va psixologik yo‘nalishlarda o‘z ahamiyatiga ega bo‘lishiga qaramay, “baxt” konsepti tilshunoslik sohasida to‘liq qamrovda o‘rganilmagan” deydi tilshunos S.G.Vorkachev.

Biroz yangi yo‘nalish bo‘lgan “felisitologiya”ga izoh berib o‘tsak, “felisitologiya” (lot. Felicitas - baxt) - baxtga erishish haqidagi ta’limot, XX asr o‘rtalarida neopozitivist O. Neyrat tomonidan ilgari surilgan. “Felisitologiya” baxt kategoriyasining axloqiy nazariyasi sifatida emas bal’ki, evdemonizm (*yunoncha eudamonia - baxt, ma’mnunlik*) an’anasini davom ettirgan holda psixologiyaning yangi yo‘nalishi sifatida vujudga kelgan. Insonning tabiiy ravishda intilayotgan psixologik holati sifatida ishlaydi (psixologik evdemonizm deb ataladi). Odamlarning baxtga intilishining ma’naviy ma’nosi, ya’ni “felisitologiya” inson intilishi kerak bo‘lgan maqsadlar to‘g‘risidagi ta’limot emas, balki faqat baxtga erishish yo‘llari, usullari to‘g‘risidagi savolga yechimdir. Otto Neyratning fikriga ko‘ra, “odamlar aniq nimaga intilishlari va qanday ijtimoiy natijalarga erishishlaridan qat’iy nazar, faqat baxt hissi muhimdir”<sup>10</sup>. Unda tashqari K. Neshev o‘zining “Этика счастья” nomli kitobida “felisitologiya bilan bog‘liq go‘yalar axloqiy nazariyaning asosidir, falsafiy jihatdan “baxt manifestlari” antik davrga borib taqaladi” kabi fikrni berib o‘tadi<sup>11</sup>.

Yuqoridagi fikrlardan bilish mumkinki, ko‘pgina ilmiy tadqiqotlarda “baxt” konseptini tizimlashtirish, yaxlit bir ko‘rinishga yoki formulaga solish orqali ifodalash maqsad qilingan. “Baxt” bilan bog‘liq tadqiqotlarni ko‘pchilik tashkil etishidan ko‘rinib turibdi, “baxt”ni o‘rganish hozirgacha keng qamrovli bo‘lib, uning mazmuni subyektiv farovonlik, psixologik farovonlik, professional farovonlik, ijtimoiy farovonlik va shaxslararo farovonlikni o‘z ichiga oladi.

<sup>10</sup> Словарь по этике: <http://moralphilosophy.ru/pg/feliciotologiya.htm>

<sup>11</sup> Нешев К. Этика счастья. М., 1982, с-43.



Jumladan Polsha faylasufi V. Tatarkevich o‘zining “О счастье и совершенстве человека” nomli kitobida baxtga quyidagicha ta’rif bergan: “Shu bilan birga, “baxt” - bu juda gibrud, “ximerik” tushunchadir, u “ichki” va “tashqi olamlarni” bog‘laydigan, narsa-hodisalarga “tashqi holat” va “ruhiy holat” haqida signal yuboradi, mikrokosmos va makrokosmos, ruh va tanani birlashtiradigan, shu sabab u semantik noaniq, yaxlit kontseptual chegaralarga ega emas. “Baxt - bu qiyin tushuncha, ko‘pchilik uchun bu noaniqlik va mavhumlikdir”<sup>12</sup>.

“Baxt” konseptida etnosning ham dunyoviy va moddiy o‘zaro uyg‘unlikka erishish haqidagi, ham umuman inson hayotining mazmuni haqidagi mahalliy tasavvurlar aks ettiriladi” deya ta’riflaydi Li Sianxua<sup>13</sup>. Shu sabab ham metafizik konsept hisoblanib, uni tasavvur qilish, his qilish subyektivdir.

Yana bir tilshunos I.B. Rusokova o‘zining Концепты «счастье» – «несчастье» в лингвокультурном содержании русских пословиц nomli ilmiy ishida “baxtga yaqin bo‘lgan falsafiy tushunchalar “mehribon xudolar himoyasida bo‘lgan inson taqdiri” ma’nosidagi evdomoniya hisoblanib, uning natijasida oliy ezgulikka erishishni bildirgan; lazzatlanish – ijobiy ichki kechinmalar; omad – ijobiy hayot sharoiti; huzur-halovat (baxt-saodat, rohat-farog‘at)- oliy darajadagi lazzatlanish hisoblanadi. Baxt tavsifi uchun tabiiylik inson o‘zi uchun muhim hisoblagan qadriyat ega bo‘lish hisoblanadi. Baxtga intilish, ya’ni kerakli hatti-harakatni amalga oshirish, inson boshqaradigan axloqiy-etik mezonlar orqali belgilanadi” deydi. Demak, baxtning entimologik ichki shakli haqida yozib o‘tadi, ya’ni qadimda insonlar “xudolar” yoki “osmon” homiyli va himoyasi ostida baxtga erishish mumkin kabi naqlga amal qilib, turli xil qurbonliklar keltirishgan. Albatta, baxt tasavvurlari inson dunyoqarashining o‘ziga xos xususiyati ekan, unda uni tadqiq etishni antroposentrik paradigmalarda – falsafa, psixologiya, sotsiologiya doiralarida rivojlanayotgan ilmiy fanlar orqali amalga oshirish mumkin. Nafaqat baxt, balki boshqa metafizik konseptlar ham falsafiy yo‘nalish bilan bog‘liq va ularni tahlilida bevosita antroposentrik paradigmalarga murojaat qilinadi. Baxtga bo‘lgan munosabat - bu insonning ma’naviy mohiyatini belgilovchi xususiyatlaridan biridir. U haqidagi g‘oyalar, fikrlar dunyoqarashning eng qadimiy qatlamini tashkil

<sup>12</sup> Татаркевич В. О счастье и совершенстве человека. М., 1981, с-55.

<sup>13</sup> Ли Цианьхуа. Концепт «счастье» в китайских пословицах и поговорках // Ли Цианьхуа, И. Б. Смирнов // Вестник Ленинградского государственного университета имени А.С. Пушкина. Серия Филология / гл. ред. В. Н. Скворцов. – СПб.: ЛГУ имени А.С. Пушкина, 2013. – № 3. – С. 175–185.



etadi. Baxt konsepti xuddi yaxshilik, qalb, o‘lim, ozodlik, muhabbat kabi tushunchalar bilan birga shaxsiy ongning aksiologik maydonining markaziy qismini qamrab oladi va aynan shu sababdan ham uni o‘rganish jarayonida ma‘lum bir millatning mental xususiyatlari bilan tanishish mumkin. Demak, baxt konsepti bir millatning inikosi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Baxt konsepti paydo bo‘lishiga qarab ikki turga ichki va tashqiga bo‘linadi ya‘ni inson ichki kechinmalarini ifodalovchi va tashqi ko‘rinishidan ko‘rsatuvchi. Falsafada esa baxt etikasi - eudemonizm va burch etikasi – deontologizmdir kabi turga bo‘linadi.

Falsafiy jihatdan qadimgi yunon faylasufi Aristotel baxtni ya‘ni felisitar konseptni 3 guruhga bo‘lgan va quyidagicha ta‘riflagan: “baxt-bu uchta manfaatning birgalikdagi hamjihatligi ya‘ni 1) ma‘naviy (ruhiy); 2) jismoniy, bunga sog‘lik, kuch, go‘zallik va shunga kabilar kiradi; 3) tashqi (dunyoviy), boylik, martaba, shon-shuhrat va boshqa shu kabillardir”. Mazkur fikrdan kelib chiqadiki, inson o‘zini baxtli his qilishi uchun nafaqat ruhiy yetuklikka erishishi kerak, bal‘ki ham jismoniy, ham dunyoviy ehtiyojlarni qondirishi, ularni rivojlantirib borishini taqozo qiladi. Bu yerda ko‘proq V.Tartakevich tahlilidan kelib chiqsak obyektiv yondashuv birlamchi, biroq subyektiv jihatdan qaraganda “men”ga nisbatan baxtni his qilish uchun hayotdan mamnunlik, motiv, maqsadga, muvozanat, ichki hotirjamlik, mehr va boshqa kabi hissiy-emotsional to‘yingalik bo‘lishi kerak. Demak, asosan faylasuf olimlar yoki tilshunoslar tomonidan mazkur obyektiv va subyektiv baxtni bir tizimga solish uchun izlanishlar olib boriladi.

Ingliz faylasufi va pedagogi Jon Lakk baxtni ikki turga bo‘ladi, ya‘ni ikki "bosqichi" mavjudligini ta‘kidlaydi. Birinchi bosqich “yomonlikning yo‘qligi”ni va baxtsizlikka qarshi tura olishni o‘z ichiga oladi. “Baxt zavq borligida emas, balki azob-uqubatlarni yo‘qligidan iborat<sup>14</sup>” ya‘ni passiv ko‘rinish desak ham bo‘ladi. Ikkinchi bosqich baxtsizlik va baxtga qarshi turish ya‘ni insoniyatning qoniqish, quvonch va baxt hissini me‘yordan oshib ketishi yoki kutilgan natijadan qoniqmaslik, baxtni tuymaslik.

Rus olimi L.N. Gumilyovni fikriga asosan birinchi bosqich subyektlari asosan ehtirosli, jasoratli insonlar kirsam, ikkinchi bosqich esa “energiya tejovchi”, “sub-ehtirosli” insonlarni qamrab oladi. Mazkur yondashuvdan kelib chiqadiki, insonlar

<sup>14</sup> Шопенгауэр А. Свобода воли и нравственность. М., 1992.



ikki xil ya'ni taqdirga tan berib, yo'lida davom etuvchi va “hammasi o'z qo'limda” shiori ostida harakat qiluvchilardir.

“Baxt” konseptini falsafiy tomondan farqli, lingvistikada tadqiqotni ma'lum bir usulga bog'lashdir<sup>15</sup>. Baxt haqidagi tasavvurlar madaniy o'ziga xosliklar bilan ranglanadi va kamida tsivilizatsiya turiga bog'liq<sup>16</sup>. Lingvistik nuqtai nazaridan S.G.Vorkochyovning fikricha baxt g'oyasi “semiotik to'yinganlik” ning yuqori darajasida bo'lib, u bir qator sinonimlar, paremiyalar, folklor va badiiy obrazlar orqali yetkazilgan. Demak, falsafiy jihatdan baxt insonning ruhiy olamini ifodalasa, lingvistik jihatidan ushbu holatni, his-tuyg'uni sub'yektiv lug'at boyligidan foydalanib ifodalashdir. “Odamlar qancha ko'p bo'lsa, baxt haqida shunchalik ko'p fikrlar bor degan umumiy fikr oxir-oqibat noto'g'ri” deydi. Individual g'oyalar tipologiyaga to'g'ri keladi, asosan, u haqidagi g'oyalar soni har bir inson tan oladigan baxt tushunchalari bilan belgilanadi. Shundan kelib chiqib, baxtning oddiy lingvistik kontseptlarini aniqlashga va ularning ma'lum bir til jamiyati dunyoqarashining ahamiyati ierarxiyasini o'rnatishga qaratilgan bo'lishi kerak. Undan tashqari U ““baxt” kontseptining nominativ maydoni ham statik, ham dinamik komponentlarga ega, ma'lum joy va vaqtda ularning nisbati bir xil nomdagi tushunchalarda farq qiladi: milliy, individual va badiiylikda, sababi, “baxt” konsepti o'ta gibriddir, o'zgaruvchidir, u insonning “narsa-hodisa” va “ruhiy holati” haqida ma'lumot berib, “ichki” va “tashqi olamlarini”, mikrokosmos va makrokosmosni bog'laydigan” deya ta'kidlab o'tadi. Yana boshqa bir tilshunoslar George Lakoff, Mark Johnsonlar “bizning kundalik hayotimizdagi o'y-hayollarimiz, faoliyat va harakatlarimizda amal qiladigan konseptual sistema tabiatdan metaforik sanaladi. Bizning fikrimizni boshqaradigan konseptlar intellektimiz mahsuli bo'libgina qolmasdan, odatiy kundalik faoliyatimizni ham boshqaradi<sup>17</sup>” deya ta'riflashadi.

**XULOSA.** Konsept haqida turli fikrlar, tahlillar va qarashlar mavjud bo'lib, antroposentrik paradigmada mental ong bilan bog'liq, har bir xalqning ichki va tashqi hissiy-emotsional qarashlari orqali dunyoga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Tilshunoslar o'z ishlarida koseptni asosiy tushunchalardan biri sifatida kiritadilar, sababi u so'z, fikrlash, madaniyat kabi kategoriyalarni aniqlash va

<sup>15</sup> Бабушкин А.П. Культура, когниция, перевод // Социокультурные проблемы перевода. Воронеж, 1998. С.10-16.

<sup>16</sup> Карасик В.И., Шаховский В.И. Об оценочных пресуппозициях // Языковая личность: вербальное поведение. Волгоград, 1998. С.3-13.

<sup>17</sup> George Lakoff, Mark Johnson. Metaphors We Live By. The University of Chicago Press. 2003. -193 p.

birlashtirish imkonini beradi. Demak, konsept periferiyalari ham vaqt va millat qarashlari bilan birga o‘zgarib boradi, u doimiy rivojlanishda. Aslida “baxt” konseptini turlicha tushunish mumkin. Sababi unda turli olamlarga tegishli, ya’ni jismoniy va ruhiy; verbal, ilmiy va oddiy turmush-tarzini ifodalovchi tasvirlar mavjud bo‘lib, inson moddiy (tashqi) va ideal (ichki) tajribasini sintez qiluvchi birlikdir. O‘zbek tilshunosi T.K. Mardiyev aytganidek, baxt tushunchasi ijtimoiy hayotdagi barcha jabhalarda namoyon bo‘ladi va inson faoliyati uchun zaruriy tuyg‘u hisoblanadi. Yer yuzida baxt haqida o‘ylamagan va uni orzu qilmagan inson bo‘lmasa kerak. Demak, fan-texnika, ijtimoiy hayot, yashash tarsi o‘zgarib borar ekan, “baxt” konsepti ham tadrijiy rivojlanib boraveradi va yadro atrofidagi freymlar ham goho kengayib, goho torayib boradi.

#### Adabiyotlar ro‘yxati

1. 李立 关于幸福感研究的文献综述 中南民族大学 民族学与社会学学院 武汉-2013.
2. Бабушкин А.П. Культура, когниция, перевод // Социокультурные проблемы перевода. Воронеж, 1998. С.10-16.
3. Карасик В.И., Шаховский В.И. Об оценочных пресуппозициях // Языковая личность: вербальное поведение. Волгоград, 1998. С.3-13.
4. George Lakoff, Mark Johnson. Metaphors We Live By. The University of Chicago Press. 2003. -193 p.
5. Шопенгауэр А. Свобода воли и нравственность. М., 1992.
6. Ли Цианьхуа. Концепт «счастье» в китайских пословицах и поговорках / Ли Цианьхуа, И. Б. Смирнов // Вестник Ленинградского государственного университета имени А.С. Пушкина. Серия Филология / гл. ред. В. Н. Скворцов. – СПб.: ЛГУ имени А.С. Пушкина, 2013. – № 3. – С. 175–185.
7. N.A. Valiyeva. (2022). Elements of buddhism in phraseological units expressing happiness in chinese. builders of the future, 2(02), 258–263. <https://doi.org/10.37547/builders-v2-i2-39>
8. Татаркевич В. О счастье и совершенстве человека. М., 1981, с-55.
9. Нешев К. Этика счастья. М., 1982, с-43.
10. Воркачев С.Г. Концепт счастья в русском языковом сознании: опыт лингвокультурологического анализа- Краснодар КТУ, 2002.-142 с.
11. Кларин М.В. На путях познания счастья (вступительная статья) // Аргайл М. Психология счастья. М., 1990. С.5-26.



12. Степанов, Ю. С. Константы: Словарь русской культуры – М. : Академиче-ский проект, 2004. 992с

13. Словарь по этике: <http://moralphilosophy.ru/pg/feliciotologiya.htm>

14. <http://www.dslib.net/soc-filosofia/socialno-filosofskij-analiz-fenomena-schastja.html>



---

# Research Science and Innovation House

